

BAYRAMGA BOLAJONLARGA BAYRAMONA KAYFIYAT ULASHILDI



BAYRAMGA BOLAJONLARGA BAYRAMONA KAYFIYAT ULASHILDI

Butun dunyo bo'ylab, har yilning 1 iyunъ kuni "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram ko'pchilik davlatlarda "Xalqaro bolalar huquqlarini himoya qilish kuni" sifatida ham e'tirof etiladi.

Shu munosabat bilan "Barqaror Hayot" Xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi va Termiz shahar hokimligi hamkorlikda bolajonlarga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

"Barqaror Hayot" Xalqaro ijtimoiy-ma'rifat markazi jamoasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlariga Termiz shahridagi "INDENIM" savdo majmuasida bayram dasturini tashkil qilishdi.

Tadbir avvalida bolalar savdo majmuasi o'yigohida turli o'yinlarda uynashdi va bayram yakunida bir piyola choy ichishdi. Tashkil etilgan bayram dasturida bolalar xursandchiliginи ko'rgan onalar o'z minnadorchiliklarni bildirishdi.







